

MEHNAT KONSEPTINI IFODALOVCHI MAQOLLARDA RAMZIYLIK

Yo‘ldosheva Nafisa Qudrat qizi

BuxDU Lingvistika (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi,
2-bosqich magistranti

E-mail: n.q.yuldosheva@buxdu.uz

ANNOTATSIYA

Insonni hayvondan farqlovchi jihatlardan biri - uning ramzlashtirishga bo‘lgan etiyojidir. Ramz - tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksi. Ramz belgi bo‘lib, uning dastlabki ma’nosidan boshqa ma’no uchun shakl sifatida foydalilaniladi.

Kalit so‘zlar: ramz, symbol, konsept, “ot” leksemasi, “it” leksemasi.

Til, madaniyat, etnos (xalq) o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va munosabatlar fanlararo muammo bo‘lib, uni hal qilish bir qancha fanlarning – falsafa va sotsiologiyadan to etnolingvistika va lingvokulturologiyagacha – birgalikdagi say-harakatlari bilan bog‘liq. Jumladan, milliy til tafakkuri masalalari – bu lingvistik falsafaning bir tarmog‘idir; ijtimoiy yoki guruharo axborot almashinuvini til aspektida o‘rganishpsixolinguistika tadqiqot doirasiga kiradi va sh.k. Til madaniyat bilan chambarchas bog‘liq: u madaniyatning ichida rivojlanadi va madaniyatning ifodachisidir.

Metaforaga yondosh hodisalardan biri bu ramziylikdir.

Ramz (arab. — ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) — vogelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog‘liq bo‘ladi va ko‘p ma’noligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko‘pchilik xalqlar adabiyoti va san’atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. Ijodkorlar an’anaviy Ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detal (Masalan, bulut, buloq, chaqmoq va boshqalar)dan ramziy tasvir uchun foydalananilar. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma’noga ega bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodiyoti va mumtoz adabiyotda keng ko‘lamda ishlataligan ramziy tasvir usuli hozirgi adabiyotda ham muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda[1].

Ramz (arab. – belgi, imo, ishora; laqab, taxallus). Biror g‘oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishorali[2, 347].

O‘zbek tilida ayrim o‘rinlarda *ramz* so‘zi o‘rnida *simvol* so‘zi ham qo‘llaniladi. Mazkur so‘z —O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida uchramaydi. —O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa ushbu so‘zga quyidagicha ta’rif berilgan: —**Simvol** (yunoncha – belgi, ramz; alomat, timsol). U aynan ramz ma’nosida qo‘llaniladi. Biron-bir g‘oyani o‘zida mujassamlashtiruvchi badiiy obraz[2, 506].

Ma’lumki, fikr ramziylikni, muloqot xarakterini namoyon qiladi. Biz muloqot jarayonida ramzlardan foydalanar ekanmiz suhbatdoshimizning ham mazkur ramzlar tizimini qabul qilganini taxmin qilamiz. Bu ramziy ma’nolar turli so‘zlar yoxud imo-ishoralar yordamida amalga oshadi. Insonni hayvondan farqlovchi jihatlardan biri - uning ramzlashtirishga bo‘lgan etiyojidir. Ramz - tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksi. Ramz belgi bo‘lib, uning dastlabki ma’nosidan boshqa ma’no uchun shakl sifatida foydalilanadi.

Qadimda insonlar Osmon, suv, yer, quyosh, oy, yorug‘lik va zulmatga Xudo deb sig‘inishgan. Quyosh o‘rnini tun egallar ekan, ezgulik va yorvuzlik o‘rtasida keskin kurash ketyapti deb e’tiqod qilishgan. Xuddi shuningdek, hayvonlarga sig‘inishgan. Ularning ichida ham yovuz va ezgu niyatllilari bor edi. Ezgulik

tangrilari osmonda, yer yuzida – yorug‘lik bilan birga yashaydi, yovuzlik tangrilari yer ostida – zulmat bilan birga yashaydi deb o‘ylashgan. Demak, inson moddiy muhitdan tashqari, ramziy olamda ham yashagan, dunyoni ramzlar orqali qabul qilgan, ramzlar orqali tabiat bilan munosabatda bo‘lgan.

Ramzlar o‘z-o‘zidan shakllanmagan, ular insonning bilish mahsuli sifatida vujudga kelgan. Insonlar o‘rtasidagi aloqa “ramz” (*simvol*) so‘zini o‘zida aks ettirgan.

Yunoncha “simvol” so‘zi dastlab sopol yoki chinni parchasini ifodalab, do‘stona munosabatlar belgisi bo‘lib xizmat qilgan. Mehmonni kuzatayotgan mezbon mehmonga sopol yoki chinni parchasining bir bo‘lagini bergan, ikkinchi bo‘lagini esa o‘zida olib qolgan. Bu mehmon qachondir yana uyga kelganida, uni ana shu sopol parchasidan tanib olishgan. Demak, qadimgi davrlarda “simvol” so‘zi “shaxs guvohnomasi” ma’nosida qo‘llangan[1,46].

Ramz uchun asosiy belgi shartlilik, obrazlilik, ko‘p ma’nolilik, ko‘chma ma’nolilikdir. Xalqning ong va shuuriga chuqur singgan ramzlar borki, ular badiiy asarlarda yorqin obrazlar yaratishga xizmat qilib kelmoqda. Kabutar – tinchlik, sher – mardlik, tulki – makkorlik, bo‘ri – ochko‘zlik ramzi sifatida badiiy asarlarda qadimdan mavjud bo‘lib kelmoqda. Bu kabi zoomorf metaforalar badiiy asarlarning ta’sirchanligi va badiiy-estetik qiymatini oshirishda muhim vosita sifatida voqelanadi. Ijodkorlar uchun ramzlar nisbatan kuchli his-tuyg‘uni, keng tushuncha va katta voqeahodisani ixcham, aniq va ta’sirli tarzda ifodalash uchun cheksiz imkoniyat yaratadi. Shunga ko‘ra xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotda ramziy obrazlar alohida tizim sifatida shakllangan.

Aytilganidek, ramzlar nutqda keng qo'llanuvchi ifoda vositasi hisoblanib, u umumxalq nutqining barcha ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ular badiiy asar matnlarida qo'llanib, badiiy asar tilining rang-barang bo'lishini ta'minlaydi. Adabiyot tarixida asrlar davomida foydalanib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud; gul — go'zallik, ma'shuqa; bulbul — oshiq; sariq rang — mahzunlik, qora rang — motam ramzi va boshqalar. Ijodkorlar an'anaviy ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detal (masalan, bulut, buлоq, chaqmoq va boshqalar)dan ramziy tasvir uchun foydalanadilar.

Hamma narsaning otasi — mehnat.

Bilamizki, musulmon oilalarida otaning o'rni bo'lakcha. Oilaning bor ta'minoti otaning zimmasida. "Qur'oni karim" oyat va suralarida ota atamasi quyidagi ma'nolarda kelganligiga guvoh bo'lamiz: Ota – barcha insonlar pushtipanohi. Odam Ato (ato-ota terminining qadimiy shakli. O'zbek tilining izohli lug'atida ato so'zining "in'om etmoq", "baxsh etmoq", "bermoq" ma'nolari keltirilgan. Balki Alloh Odamni yaratib unga jon va hayot, ilm ato etganligi sabab unga ato shakli qo'shilib aytilgan, keyinchalik kishilar tilida ato shakli ota ma'nosiga singib ketgan bo'lsa ajab emas,)ni yaratdi va Alloh taolo farishtalariga: "Men erda xalifa (Odam) yaratmoqchiman...", - deydilar. (Baqara surasi, 1-pora, 30-oyat) Shunday qilib, Olamlarning sarvari Odam Atoni shakl-u shamoyili bor, pisshitilgan loydan yaratadi. "Qur'oni karim"da keltirilishicha: Alloh Odam Atoga barcha nomlarni o'rgatadi... (Baqara surasi, 1-pora, 31-oyat). Ya'ni Odam alayhissalom rabboniy fayz-u barakotdan oziqlangan, Allohnning ilm nuridan bahramand bo'lgan Yer yuzidagi ilk zot bo'lgan[3,5].

Ushbu maqol yordamida mehnat hayotning muhim bir bo'lagi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Yer boylikning onasi bo'lsa, Otasi — mehnat.

Yer — ona, suv — ota, Mehnat — boylik.

Obro 'ning onasi — mehnat, Otasi — sa'y i harakat.

Rohatning onasi — mehnat.

Mazkur maqollarda mehnat va u bilan bog'liq birliklar ota-onasini semasi yordamida yanada ta'sirchan qilib ochib berilgan.

Mehnat va o'qish — og'a-ini.

Ushbu maqol orqali mehnat bor joyda, albatta, o'qish ham yonma-yon turishi hayotiy dalil orqali ifodalangan.

Xuddi shuningdek, maqollarda yana ko'plab ramziylikka duch kelamiz. Masalan, Aravani ot tortar, Ko'lankasin — it.

Ot yakka tuyoqlilarga mansub sute Mizuvchi yirik ish-ulov hayvoni bo'lib o'zbek tilshunosligida "ot" LMGiga ot, baytal, biya, ayg'ir, saman, yo'rg'a, yobi, to'riq, jiyron, bedov, toy kabi leksemalar kiradi[4,46]. Ma'lumki, ot qadimdan inson

og‘irini yengil qilib kelgan. Ot kuchli, chidamli, ko‘rkam, pokiza, hushyor, biror narsani darhol payqaydi. Ko‘rish, hid bilish, bilinar-bilinmas tovushni ham eshitish qobiliyati kuchli. Bu fazilatlaridan tashqari ot insonning sodiq do‘sti, vafodori, og‘ir ishlarda madadkori, safarlarda hamrohi, har qanday holatda ham kishini o‘limdan saqlab qolguvchi ajoyib uy hayvonidir.

Mahmud Koshg‘ariyning ta’biri bilan aytganda *ot* “turning qanotidir”[5,78]. “Ot turkiy qabilalarda totem jonivorlardan biri bo‘lib, ezgulik ruhi sifatida shomonga yovuz ruh ustidan g‘alaba qfishda yordam beradi. Shomonlarning hassalari ko‘pincha ot ramzini ifodalaydi va o‘zbek xalqida hozirgacha otning devi bor degan ishonch saqlanib qolgan.

Maqolning birinchi qismidagi “ot” leksemasi “mehnatkash shaxs” semasini, ikkinchi qismidagi “it” leksemasi “maqtanchoqlik” semasini ifodalamoqda.

Ba’zan “ot” leksemasi orqali salbiylik ham ifodalaniladi: Ishlagan tishlar, Ishlamagan kishnar.

‘Arg‘umog‘im jirtak otdi, Loyni ko‘rib tappa yotdi.

Ushbu maqolda esa qiyinchilikda tez taslim bo‘luvchi kishilar “ot” leksemasi orqali berilmoxda.

It o‘zining beminnat xizmati tufayli inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Tirik jonzotlar ichida Yerdan kosmosga ko‘tarilgan ilk jonivor ham itdir. It boshqa hayvonlardan farqli ravishda ong darajasi ozmuncha rivojlangan bo‘lib, buyruqlarni so‘zsiz bajaradi. O‘zbek xalq maqollarida “it” LMGining uch jihat: ijobiy, mo‘tadil va salbiy xarakter-xususiyatni ifodalashi ko‘zga tashlanadi[4,48].

Emgaksiz itdan yomon, It tugul bitdan yomon.

Ushbu maqolda ham it leksemasi salbiy semani ifodalab kelmoqda.

Eshak maqollarda, asosan, mehnatkash qilib ifodalanadi. Quyida esa kamharakatlik natijasida dangasalik semasi faollashgan.

Yuki yengil eshak yotag‘on bo‘lar.

Ot topadi, eshak yeydi.

Bunday maqollar, odatda, kuchli emotSIONAL ma’noga ega. Ya’ni tekinxo‘rlar eshak, maqtanchoqlar it timsolida qoralanadi. Maqolning birinchi qismida qo‘llangan “ot” leksemasi esa mehnatkash shaxs timsoli sifatida yuzaga chiqmoqda.

Ot oyog‘idan topar, Odam — qo‘lidan[6,54].

Bu yerda mehnat qilishga da’vat semasi bor.

Xulosa qilib aytganda, ramzlar obrazli tafakkur qilishning muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, insonning badiiy-estetik didini oshirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. <http://ru.wikipedia.org/wiki/zoonym>
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. Т. I. 2006. - 680 б; Т. II. 2006. - 672 б.; Т. III. 2007. - 688 б.; Т. IV. 2008. - 608 б.; Т. V. 2008. - 592 б.
- 3.Qodirova N., //O'zbek tilida “Ota” komponentli maqollarning milliy-madaniy xususiyatlari //Oriental journal of philology 20202 №4 – б. 1-6
4. Jo'rayeva B.M. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Samarqand, 2019. – 144 b.
- 5.Usmonova Sh. Lingvokultrologiya(darslik) – Т.: 2019 – В.13
- 6.Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.